

## **O‘ZBEKISTONDA ISHLAB CHIQUARISHINI RIVOJLANTIRISHNING ME‘YORIY-HUQUQIY ASOSLARI**

*Naimxonov Ma'rufxon Zokirxon o'g'li  
Mustaqil tadqiqotchi*

Har qanday mamlakatning tadrijiy jihatdan iqtisodiy rivojlanishi muayyan bosqichlarni bosib o'tishni taqozo etadi. Iqtisodiy jihatdan mustahkam bo'lmagan mamlakat uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining poydevori sanoatlashish tomon qo'yilgan qadam orqali yotqiziladi. Darhaqiqat, mamlakatda sanoat rivojlanishi ko'plab tarmoq va sohalar taraqqiyotiga zamin bo'ladi.

“Iqtisodiy rivojlanish” nazariyasidan ma'lumki, dastlab agrar tizimdan sanoati rivojlangan ishlab chiqarish ukladiga o'tadi, so'ngra o'z o'rnini postindustrial (sanoatlashgan tizimdan xizmatlar sohasi taraqqiy etgan milliy iqtisodiyotga aylanadi) tizimga bo'shatib beradi.

“Yangi iqtisodiy rivojlanish” nazariyasi tarafdorlari mamlakat tadrijiy rivojlanishining postindustrial ukلامي ham o'z o'rnida “bilimlar iqtisodiyoti” hisoblanmish – “innovatsion” yoki “raqamli iqtisodiyot” taraqqiyot bosqichiga o'tishi haqida mulohaza yuritmoqdalar.

Demak, rivojlanayotgan mamlakatlar o'z tadrijiy taraqqiyot yo'lida yuqorida keltirib o'tilgan bosqichlarni bosib o'tishi lozim ekan, unda birlamchi masala milliy iqtisodiyotdagi mavjud resurs va zaxiralardan optimal foydalangan holda uni kechib o'tishdir. Bu borada ustuvor masala — milliy iqtisodiyotni sanoatlashtirish, industrial tarmoq rivojlanishi strategiyasini shakllantirish hisoblanadi.

Jahon hamjamiyatiga integratsiyalashayotgan O'zbekiston Respublikasi uchun ham iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlab olish kabi muhim masalalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida” PF-4947 — sonli Farmonida belgilab berildi.

Qayd etish kerakki, mazkur me'yoriy — huquqiy hujjatda O'zbekiston Respublikasini taraqqiy ettirishning bir qancha yo'nalishlari bilan bir qatorda “Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari” bo'linmasida tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini, xususan sanoat ishlab chiqarishini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish masalalariga qaratilgan mulohazalar keltirib o'tildi.

Bundan tashqari mamlakat miqyosida sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishga doir bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlar ham ishlab chiqildi.

**O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish va industrial tarmoqlarni taraqqiy ettirishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar**

<b>№</b>	<b>Me'yoriy-huquqiy hujjatlar nomi</b>	<b>Me'yoriy-huquqiy hujjatlar raqami, sanasi va uni qabul qilgan tashkilot nomi</b>
1.	2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 15 dekabrda PQ-1442-son qarorida
2.	2017 — 2021 yillarda ko'mir sanoatini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish Dasturi to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 iyundagi PQ-3054-son qarori
3.	Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 apreldagi PQ-4265-son qarori
4.	To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida	O'zR Prezidentining 2017 yil 14 dekabrda PF-5285-son farmoni
5.	Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlarini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 19 sentabrda 744-son qarori
6.	2017 — 2021 yillarda gidroenergetikani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari Dasturi to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 mayda PQ-2947-son qarori
7.	Elektrotexnika sanoatini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va tarmoqning investitsiyaviy hamda eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 mayda PQ-4348-son qarori
8.	Kon-metallurgiya tarmog'i korxonalarini faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvarda PQ-4124-son qarori
9.	Qurilish materiallari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20 fevralda PQ-4198-son qarori
<b>Manba: <a href="https://nrm.uz">https://nrm.uz</a> va <a href="http://www.lex.uz">http://www.lex.uz</a> saytlari ma'lumotlari</b>		

Aytish joizki, O'zbekiston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishga doir ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlili, ularni to'rt yo'nalishda tasniflash imkonini berdi.

Dastlabki yo'nalish, O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarishini muayyan bir tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlardir.

Mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish va industrial tarmoqlarni taraqqiy ettirishga oid ayrim me'yoriy-huquqiy hujjatlarni 1-jadvalga ko'rishga keldi.

O'zbekiston Respublikasida industrial tarmoqni rivojlantirishga doir qabul qilingan me'yoriy aktlar va tashkiliy-huquqiy hujjatlar tasnifining ikkinchi guruhiga sanoat korxonalarini shakllantirishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar majmuasi kiritildi (2-jadval).

**2-jadval**

**O'zbekiston Respublikasida sanoat korxonalarini shakllantirishga oid me'yoriy  
— huquqiy hujjatlar majmuasi**

<b>№</b>	<b>Me'yoriy-huquqiy hujjatlar nomi</b>	<b>Me'yoriy-huquqiy hujjatlar raqami, sanasi va uni qabul qilgan tashkilot nomi</b>
1	Ekskavatorlar va gusenitsali texnikani ta'mirlash zavodini qurish investitsiya loyihasini optimallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.01.2017 y. PQ-2719-sonli qarori
2	Shisha idishlar ishlab chiqarish zavodi qurilishini tugallash va foydalanishga topshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.11.2008 y. 251-sonli qarori
3	Tebinuloq koni negizida kon-metallurgiya kompleksi qurilishi investitsiya loyihasini amalga oshirish borasidagi ishlarni tashkillashtirish to'g'risida	O'zR Prezidentining 2018 yil 12 yanvardagi PQ-3473-son qarori
4	«Olmaliq KMK» AJning boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 sentabrdagi PQ-3280-son qarori
5	“Qandim guruhiga kiruvchi konlarni tartibga keltirish va gazni qayta ishlash zavodining qurilishi bo'yicha” texnik-iqtisodiy loyihasining asoslanishini tasdiqlash xususida”	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 8 sentabrdagi 258-sonli qarori

**Manba: <https://nrm.uz> va <http://www.lex.uz> saytlari ma'lumotlari**

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish, yangi industrial tarmoqlarni shakllantirish, sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish va ularni qayta jihozlash, mahsulotlar eksportini oshirish bilan bog'liq ishlar bevosita investitsion jarayon bilan bog'liq. Shunday ekan, sanoat ishlab chiqarishini taraqqiy ettirishga doir qabul qilingan me'yoriy aktlar bevosita investitsiya faoliyatini yuritishga oid tashkiliy-huquqiy hujjatlar bilan uzviy bog'liq ravishda ishlab chiqilishi va bir-birini to'ldirishi tabiiy. O'zbekiston Respublikasida ham investitsiya faoliyatiga oid ko'plab me'yoriy –huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan bo'lib, ularning eng asosiysi bu “Investitsiya faoliyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hisoblanadi.

Muxtasar qilib, aytish joizki milliy sanoatni rivojlantirishga oid me'yoriy aktlar va boshqa tashkiliy huquqiy hujjatlar, bugungi kunda O'zbekistonda sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, mahsulotlar turlari bo'yicha ishlab chiqirishni

diversifikatsiyaga erishish, tashqi bozorlarda mahalliy sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligi oshirish eksport hajmini ko'paytirish imkonini beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Адашев А. Ў. Корхоналарда инновацион ривожланишининг таркибий асослари //Научное знание современности. – 2017. – №. 4. – С. 8-12.
2. АУ Адашев, ХО Арслонов Мотивация персонала как функция менеджмента-Мировая наука, 2019
3. AA Urinboevich Directions for ensuring the sustainable development of industrial enterprises in the context of economic liberalization. International Engineering Journal For Researc-2020
4. Adashev, A. U., and A. M. Ismoilov. "The importance of organizational structure in small business management." *Экономика и социум* 2-1 (2021): 21-26.
5. Urinboevich, Adashev Azimjon. "Analysis of sustainable development of small business components of the republic of uzbekistan." *E-Conference Globe*. 2021.
6. Adashev, Azimjon Urinboevich, and Abdulkholik Mukhiddin Ugli Ismoilov. "The Role Of Small Business In The Management Of The Organized Structure." *The American Journal of Applied sciences* 3.04 (2021): 84-90.
7. AU Adashev Models of transition to market economy, their commonwealth and differences *Экономика и социум*, 2018
8. AU Adashev The content bases of the innovative development in companies *Высшая школа*, 2017
9. Adashev, A. U. "Financial management as a system and mechanism of finance management." *Экономика и социум* 3 (2020): 6-8.
10. AU Adashev Principles and laws of management *Экономика и социум*, 2019
11. Adashev, Azimjon Urinboevich, and Abdulkholik Mukhiddin Ugli Ismoilov. "The Role Of Small Business In The Management Of The Organized Structure." *The American Journal of Applied sciences* 3.04 (2021): 84-90.
12. АУ Адашев Значение малого бизнеса и частного предпринимательства в вопросах занятости Молодой ученый, 2016
13. AA Urinboevich Theoretical bases of the organization of production process in small business subjects Conference Zone, 2021
14. AA Urinboevich Ways to improve the efficiency of small businesses Conference Zone, 2021
15. AA Urinboevich Theoretical Principles Of Organizing And Improving The Production Process In Small Business Subjects Journal of Pharmaceutical Negative Results, 2022